NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI DOIRASIDA EVFEMIZMLARNING FUNKSIONAL-KOMMUNIKATIV TAHLILI

Axmedova Xusniya Muxiddinovna

SamDCHTI Ingliz tili o‘qituvchisi

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20320257

Annotatsiya: Ushbu tezisda ko‘plab tilshunoslar evfemizmlarni to‘g‘ri tavsiflash uchun ularni nutqiy kommunikatsiya nazariyasi doirasida tahlil qilish zarurligini ta’kidlashlari hamda evfemizatsiya nutqiy kommunikatsiya hodisasi ekanligini, til tizimining tarkibiy qismi emasligini aniq belgilash evfemizmlar nazariyasidagi ko‘plab murakkab masalalarni hal qilishga yordam berishiga alohida urg‘u berishlari keng muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, evfemizatsiya, nutq aktlari nazariyasi, funksional-kommunikativ yondashuv, illokutiv jihat, perlokutiv jihat, lokutiv jihat, kommunikativ niyat, nutqiy strategiya, nutqiy taktika, ijtimoiy-mediativ evfemizmlar, manipulyativ evfemizmlar, pragmatika, kommunikativ ta’sir, ekstralingvistik omillar, verbal va noverbal vositalar, tabu leksika, kommunikativ muvozanat, diskurs, til va nutq munosabati.

Yaqin vaqtgacha mahalliy tilshunoslikda evfemistik birliklar kommunikativ nuqtai nazardan deyarli o‘rganilmagan. Evfemizmlarni lingvistik pragmatika doirasida, xususan, nutq aktlari nazariyasi asosida o‘rganish zarurligi haqidagi fikr ilk bor M. L. Kovshova tomonidan ilgari surilgan [1;29.]. Zamonaviy nutq aktlari nazariyasining asoslari XX asr o‘rtalarida ingliz faylasufi va mantiqshunosi J. Ostin tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, kommunikatsiya birligi sifatida gap yoki bayonot emas, balki nutq akti qaraladi. Nutq akti tasdiqlash, savol berish, tushuntirish, tasvirlash, minnatdorchilik bildirish, afsuslanish kabi harakatlarni ifodalaydi va umumqabul qilingan qoidalar hamda xulq me’yorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Nutq akti uch asosiy jihatda namoyon bo‘ladi:

lokutiv jihat – tovushlarning bevosita talaffuzi, ularning grammatik va sintaktik qoidalarga muvofiq birikishi hamda muayyan tushunchalar bilan bog‘lanishi;

illokutiv jihat – nutq orqali amalga oshiriladigan maqsadli harakat (masalan, xabar berish, ogohlantirish, ishontirish, savol berish va boshqalar);

perlokutiv jihat – nutq natijasida yuzaga keladigan ta’sir, ya’ni suhbatdosh ongida yoki voqelikda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar. Bunda performativ birliklar muhim ahamiyatga ega, ya’ni ular bayonot emas, balki muayyan harakatni amalga oshirishni bildiradi (masalan, “men tavsiya qilaman”, “men va’da beraman”, “men uzr so‘rayman” va boshqalar). Mazkur nazariyaga tayangan holda, M. L. Kovshova evfemizmni bir vaqtning o‘zida ham nutq akti, ham uning tarkibiy birligi, ya’ni o‘ziga xos leksik ma’noga ega til elementi sifatida talqin qiladi [2;40]. Shu bilan birga, muallif evfemizm nutq akti sifatida maxsus performativ fe’lga ega emasligini ta’kidlaydi. E. V. Paduchevaning fikricha, bu holat ushbu nutqiy harakatni illokutiv akt sifatida to‘liq tasniflash imkonini cheklaydi. Biroq, J. Lich fikrlariga tayangan holda, M. L. Kovshova shunday xulosaga keladi: “performativ fe’lning yo‘qligi nutq aktining mavjudligini inkor etish uchun asos bo‘la olmaydi”. Evfemizmlarni nutq akti sifatida ko‘rib chiqish imkonini beruvchi asosiy dalil – ularda J. Ostin ajratgan uch jihatning (lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya) mavjudligidir. Evfemizmning **lokutiv jihati** – bu “bayonotga hamroh bo‘luvchi kommunikativ implitsit ma’no” **illokutiv jihati** – “so‘zlovchi tomonidan suhbatdosh uchun noqulay yoki qo‘pol deb hisoblangan ifodalarni yumshatish maqsadida ongli ravishda tanlangan

o‘rinbosar birliklardan foydalanish”; **perlokutiv jihati** esa – “yumshatilgan nutqning suhbatdoshga ijobiy ta’siri, emotsional yaqinlashuv va umumiy kommunikatsiyaning muvaffaqiyatli kechishidir”.

Shuni ta’kidlash lozimki, evfemizm (ayniqsa, alohida leksik birlik sifatida namoyon bo‘lganda) bilan to‘liq nutq akti o‘rtasida mutlaq tenglik mavjud emas. Shunga qaramay, J. Ostin va uning izdoshlari tomonidan ilgari surilgan qator nazariy qoidalar evfemizmlar va ularning funksiyalarini tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, M. Hallidey nutq aktini tilning “semantik salohiyati”ni tashkil etuvchi o‘zaro bog‘langan ko‘plab muqobil variantlardan birini tanlash sifatida talqin qiladi. Ushbu tanlov muloqotning pragmatik sharoitlari, aniq nutqiy vaziyat hamda kommunikantlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar bilan belgilanadi. Evfemistik birlik yoki uning konvensional ekvivalentidan foydalanish tanlovi ham aynan shu ekstralingvistik omillar bilan belgilanadi. M. Hallidey fikricha, nutq akti verbal va noverbal xulq-atvorni o‘zaro bog‘laydi. Evfemizmning amalga oshirilishi ham verbal, ham noverbal vositalar orqali yuz beradi. Evfemizmlarning noverbal ifodalanish vositalari deganda tilga oid bo‘lmagan, ya’ni ekstralingvistik usullar tushuniladi. Ularga og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan imo-ishoralar (masalan, ko‘z qisish, noodatiy intonatsiya, qo‘l siqish, suhbatdoshning oyog‘iga tegib ketish) hamda yozma nutqda qo‘llaniladigan “yumshatib aytsam”, “yumshoq qilib aytganda”, “shunday qilib aytganda”, “boshqacha qilib aytganda” kabi ifodalar va qo‘shtirnoqlar kiradi [3; 14]. Mazkur tadqiqot uchun evfemizmning ayniqsa illokutiv va perlokutiv jihatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shubhasiz, evfemizmlardan foydalanish nutq ishlab chiqaruvchining muayyan kommunikativ niyatlarini amalga oshirishga va/yoki tinglovchiga aniq ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu jihatdan evfemizm funksional xususiyatiga ko‘ra nutqiy taktika tushunchasiga yaqinlashadi (M. L. Kovshova uni “kommunikativ jihatdan sozlovchi” deb ta’riflaydi) hamda nutqiy strategiya bilan chambarchas bog‘lanadi. Masalan, L. N. Saakyan evfemiyani “so‘zlovchining kommunikativ hamkorlik prinsipiga tayangan holda nutqiy ustunlikka erishishini nazarda tutuvchi strategiya” sifatida talqin qiladi, ba’zi hollarda esa u tinglovchining unga ko‘rsatilayotgan bosimga qarshiligini ham implitsit tarzda ifodalaydi. Shu jihatdan evfemiya “ishontirish (persuaziv) diskurs strategiyalariga yaqinlashadi”. Evfemizmni nutqiy strategiyani amalga oshirishga xizmat qiluvchi nutqiy taktikalardan biri sifatida tasniflash ma’lum darajada asosli bo‘lsa-da, uni faqat “kommunikativ sozlovchi” taktika yoki “ishontirish strategiyasi” bilan cheklash to‘liq to‘g‘ri emas. Chunki mashhur tadqiqotlarda keltirilgan misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, evfemizmlarning illokutiv va perlokutiv imkoniyatlari M. L. Kovshova tomonidan berilgan tavsifga nisbatan ancha keng va murakkabdir. Mazkur ishda evfemizmlarni tahlil qilishda nutq aktlari nazariyasining ayrim qoidalaridan foydalanish “funksional-kommunikativ yondashuv” atamasi bilan ifodalanadi. Bu yondashuvga ko‘ra, muayyan birlikning evfemizm ekanligini aniqlash faqat uning aniq kommunikativ vaziyatlardagi funksiyalarini tahlil qilish orqali mumkin bo‘ladi. Evfemizm funksiyalarini tahlil qilish va ular asosida turli evfemizm turlarini tasniflash, ayniqsa, nemis tili materiallari asosida ishlagan xorijiy tilshunoslar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Bunda “evfemizm funksiyasi” tushunchasi nutq aktlari nazariyasidagi illokutiv va perlokutiv jihatlarning tavsifiga yaqinlashadi, garchi J. Ostin tomonidan taklif etilgan terminologiya bevosita qo‘llanilmasa ham. Z. Luxenberg funksiyani “evfemizmlardan foydalanuvchi shaxsning niyatlari hamda ularning tinglovchiga ko‘rsatadigan ta’siri sintezi” sifatida talqin qiladi. R. Rada ham shunga yaqin fikrni ilgari surib, evfemizm funksiyasini uning qo‘llanishiga sabab bo‘luvchi motivlar majmui va nutqda qo‘llanishi natijasida yuzaga keladigan ta’sir bilan bog‘laydi [4;64]. R. Rada ta’kidlashicha, evfemizmlarning perifrazik tabiati va ularning semantik tuzilishi muhim bo‘lsa-da, ular hal qiluvchi omil hisoblanmaydi. Bu xususiyatlar evfemizmlarning qo‘shimcha belgilariga kiradi. Asosiy va belgilovchi xususiyat esa evfemizmlarning funksional xarakteristikasi, ya’ni so‘zlovchining niyati va evfemizm qo‘llanishi natijasida yuzaga keladigan ta’sirdir. Biroq, ushbu

ta’rif evfemistik birliklardan foydalanish kimning manfaatlari (nutq ishlab chiqaruvchi - produsent yoki qabul qiluvchi - retsipient) yo‘lida amalga oshirilishini aniqlashtirmaydi. Shuni taxmin qilish mumkinki, evfemizmlardan foydalanishda bir xil darajada ham illokutiv, ham perlokutiv jihatlar ustunlik qilishi mumkin. Ammo bu jihatlarning simmetriklik darajasiga qarab (ya’ni retsipientning produsentning kommunikativ niyatlaridan qanchalik xabardorligiga bog‘liq holda) evfemizmlarning funksional yo‘nalishi o‘zgarib turadi. Evfemistik nomlashlardan foydalanishda yuzaga keladigan illokutiv va perlokutiv jihatlarning o‘zaro ta’siri tahlili natijasida evfemizmlarni ikki turga ajratish mumkin: ijtimoiy-mediativ va manipulyativ evfemizmlar. Ijtimoiy-mediativ evfemizmlar ikkala kommunikantning ham kommunikativ niyatlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunday birliklardan foydalanilganda “taqiqlangan (tabu) leksika neytrallanadi, bu esa muloyim kommunikativ munosabatni ta’minlaydi va nizolarning yuzaga kelishining oldini oladi” [5;163].Ijtimoiy-mediativ evfemizmlarning nutqda qo‘llanishiga asosiy omillar — qo‘rquv (masalan, o‘lim yoki og‘ir kasallikdan qo‘rqish), takt hissi, suhbatdoshga nisbatan e’tibor va hurmat, shuningdek, jirkanish va uyat tuyg‘ularidir. Bu motivlar har ikkala kommunikant uchun ham muhimdir: so‘zlovchining o‘zida mavjud qo‘rquv, jirkanish yoki uyat hissi uni mos evfemizmlardan foydalanishga undaydi, suhbatdoshga nisbatan hurmat va ehtiyotkorlik esa unda salbiy his-tuyg‘ularni uyg‘otmaslikka xizmat qiladi. Salbiy holat sifatida, aslida salbiy konnotatsiyaga ega bo‘lmagan tushunchalarni muhokama qilish jarayonida suhbatdoshlar orasida paydo bo‘ladigan noqulaylik, hijolat yoki tortinchoqlik hissini ham ko‘rsatish mumkin. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ijtimoiy-mediativ evfemizmlar quyidagi nominativ sohalarga mansub deb hisoblanadi: “O‘lim va o‘limga olib keluvchi kasalliklar”, “Shaxsiy hayot”, “Inson fiziologiyasi”, “Zararli odatlar”, “Jinoyatlar va ularning oqibatlari”. Evfemizatsiyaning “Siyosiy muammolar va harbiy harakatlar”, shuningdek, “Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar” kabi nominativ sohalari esa manipulyativ evfemizmlar faol qo‘llaniladigan sohalar sifatida qaraladi. Z. Luxenberg ta’kidlashicha, bunday evfemizmlarning vazifasi -voqelikdagi predmet yoki hodisani shunday taqdim etishki, bunda tinglovchi faqat so‘zlovchi uchun foydali bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratadi [6; 167]. Bunda produsent tomonidan yetkazilgan axborot retsipient tomonidan qabul qilingan mazmun bilan to‘liq mos kelmaydi. Shu sababli bu jarayon ko‘pincha yolg‘on yoki manipulyatsiya usuli sifatida baholanadi. Biroq Z. Luxenberg bu yerda yolg‘on emas, balki “axborotni silliqlashtirilgan shaklda taqdim etish usuli” mavjudligini asoslaydi. Ya’ni, voqelik shunday ifodalanadiki, u to‘liq real holatga mos kelmaydi: “bu - real voqelikka zid bo‘lgan yolg‘on emas, balki real voqelikka to‘liq mos kelmaydigan axborotdir”. E. V. Kiprskaya ham shunga yaqin fikr bildiradi: “siyosiy evfemizmlardan foydalanilganda hodisaning mohiyati emas, balki uning potensial retsipientga yetkazilish usuli o‘zgaradi”. A. R. Degtyareva esa “evfemizmlarning anglanmagan (ong osti) talqini til egalari uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi”ligini ta’kidlaydi . Shunday qilib, manipulyativ evfemizmlarning asosiy vazifasi voqelikni buzib ko‘rsatish emas. Aksincha, ular muayyan hodisaga yangi talqin, yangi nuqtai nazar beradi hamda unga yangicha axloqiy-baholovchi mazmun yuklaydi. Ijtimoiy-mediativ evfemizmlardan farqli ravishda, manipulyativ evfemizmlardan foydalanish “ko‘proq so‘zlovchining niyatlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, tinglovchida yetkazilayotgan axborotga nisbatan neytral yoki ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday birliklar evfemizm sifatida qaralishi mumkin, chunki ular retsipientda nomaqbul reaksiyani keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan axborotni yetkazish uchun qo‘llanadi va shu tariqa evfemizatsiyaning asosiy maqsadi -kommunikativ nizodan qochishga mos keladi.

Bunda salbiy axborot yoki uning asl mazmunidan retsipientning e’tiborini chalg‘itish maqsadida niqoblanadi, yoki salbiy komponent to‘liq ijobiy argument bilan siqib chiqariladi. Ya’ni, retsipientga ta’sir o‘tkazish orqali uning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirish maqsadi ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Реброва, Н. Е. Способы описания эвфемизмов и их функциональной характеристики / Н. Е. Реброва. – Текст : непосредственный // Вестник Рыбинского государственного авиационного технического университета им. П. А. Соловьева. – 2013. – №1(24). – С. 160–165.
2. Реброва, Н. Е. Функционально-семантическая характеристика эвфемизмов в аспекте лексикографического описания (на материале Duden Das grosse Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache) / Н. Е. Реброва. – Текст : непосредственный // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. Серия: Филология. – 2014. – № 2 (27). – С. 175–181.
3. Кипрская, Е. В. Политические эвфемизмы как средство камуфлирования действительности в СМИ (на примере конфликта в Ираке 2003–2004 гг.) : специальность 10.02.19 «Теория языка» : автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук / Кипрская Екатерина Викторовна ; Вятский государственный гуманитарный университет. – Ижевск, 2005. – 18 с. – Текст : непосредственный.
4. Дегтярева, А. Р. Экспериментальная верификация иллокутивной силы функциональных типов эвфемизмов современного русского языка / А. Р. Дегтярева. – Текст : электронный // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1–1. – URL: https://www.science education.ru/ru/article/view?id=18041 (дата обращения: 29.07.2020).
5. Корчевская, М. А. Эвфемия как инструмент воздействия на аудиторию в журналистике и рекламе (на материале англоязычных текстов) : специальность 10.01.10 «Журналистика» : автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук / Корчевская Мария Александровна ; Российский университет дружбы народов. – Москва, 2012. – 18 с. – Текст : непосредственный.
6. Саакян, Л. Н. Эвфемия как прагмалингвистическая категория в дискурсивной практике непрямого речевого убеждения : специальность 10.02.01 «Русский язык» : автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук / Саакян Левон Николаевич ; Государственный институт русского языка имени А. С. Пушкина. – Москва, 2010. – 23 с. – Текст : непосредственный.